

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil).– 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

INGLIZ TILIDA KONSTRUKTIV KOMISSIV NUTQIY AKTLARNING FUNKSIONAL-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Po'latova O'g'ilxon Abduxaliqovna

Andijon davlat universiteti doktoranti

Email: ziynat81@mail.ru

Tel: +998911611411

ORCID: 0009-0007-2757-0248

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi konstruktiv komissiv nutqiy aktlarning funksional-pragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot nutqiy aktlar nazariyasi doirasida komissiv aktlarning kommunikativ tabiati, ularning illokutsion mazmuni hamda muloqot jarayonidagi ijtimoiy-pragmatik vazifalarini aniqlashga qaratilgan. Ishda promise, offer, guarantee, undertake, pledge kabi leksik birliklar va modal konstruktsiyalar orqali ifodalanuvchi konstruktiv komissiv aktlarning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur nutqiy birliklar faqatgina kelajakdagi harakatga nisbatan majburiyat bildirish vositasi bo'lib qolmay, balki ishonchni shakllantirish, hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va kommunikativ samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Konstruktiv komissivlarning pragmatik mazmuni grammatik shakl bilan bir qatorda kommunikativ vaziyat, so'zlovchining maqsadi va madaniy omillar ta'sirida shakllanadi.

Kalit so'zlar: pragmatika, nutqiy akt, komissiv akt, konstruktiv komissiv, illokutsiya, kommunikativ funktsiya.

FUNCTIONAL-PRAGMATIC FEATURES OF CONSTRUCTIVE COMMISSIVE SPEECH ACTS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Pulatova Ugilhon

Doctorate student of Andijan State University

Andijan, Uzbekistan

Annotation. This article investigates the functional-pragmatic features of constructive commissive speech acts in the English language. The study aims to identify the communicative nature of commissive acts, their illocutionary content, and their socio-pragmatic functions in the process of communication within the framework of speech act theory. The research analyzes the usage characteristics of constructive commissive acts expressed through lexical units such as promise, offer, guarantee, undertake, and pledge, as well as through modal constructions. The findings demonstrate that these speech units serve not only as means of expressing commitment to future actions but also as tools for establishing trust, developing cooperative relationships, and ensuring communicative effectiveness. The pragmatic meaning of constructive commissives is formed not only by grammatical structures but also by communicative context, the speaker's intention, and cultural factors.

Keywords: pragmatics, speech act, commissive act, constructive commissive, illocution, communicative function.

DOI: <https://doi.org/10.47390/yl-dif-y2026v2i14/n11>

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til hodisalarini faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki ularning real kommunikativ jarayondagi vazifalari nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Pragmatika til birliklarining nutq jarayonida qanday ma'no hosil qilishi, so'zlovchining kommunikativ maqsadi va tinglovchiga ta'sir mexanizmlarini tadqiq etadi. Nutqiy aktlar nazariyasi pragmatikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning ilmiy asoslari J.L.Ostin tomonidan ishlab chiqilgan. Olim til yordamida nafaqat axborot berish, balki muayyan ijtimoiy harakatlarni amalga oshirish mumkinligini ko'rsatib

berdi [1]. Keyinchalik J.R.Syorl nutqiy aktlarni tizimlashtirib, komissiv aktlarni alohida illokutsion kategoriya sifatida ajratdi [3]. Komissiv nutqiy aktlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda so'zlovchi kelajakda bajarilishi lozim bo'lgan harakat uchun o'z zimmasiga majburiyat oladi.

Konstruktiv komissiv aktlar – muloqot jarayonida ijobiy majburiyatni yaratadigan nutqiy birliklar bo'lib, ular so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida hamkorlik, ishonch yoki kelajakdagi ijobiy natijaga yo'naltirilgan o'zaro majburiyatni shakllantiradi. Ularga *va'da (promise)*, *kafolat (guarantee)*, *taklif (offer)* singari aktlarni kiritish mumkin. Ularning illokutiv komponenti kooperativ xarakterga ega bo'lib, ingliz tilida odatda modallik vositalari (*will, shall, would*) va performativ fe'llar (*promise, guarantee, offer*) yordamida ifodalanadi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi konstruktiv komissiv nutqiy aktlarning funksional-pragmatik xususiyatlari va ularning kommunikativ jarayondagi roli ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nutqiy aktlar nazariyasi zamonaviy pragmatikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning shakllanishida J.L.Ostin va J.R.Syorl tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Ostin til birliklari yordamida nafaqat fikr ifodalash, balki muayyan harakatlarni bajarish mumkinligini asoslab bergan [1]. Syorl esa nutqiy aktlarni tasniflab, komissiv aktlarni so'zlovchining kelajakdagi harakatga nisbatan majburiyatini ifodalovchi illokutsion tur sifatida belgilagan [3]. Pragmatik tadqiqotlarda S.Levinson va G.Yule nutqiy birliklarning ma'nosi kommunikativ vaziyat va so'zlovchining maqsadi bilan bog'liqligini ta'kidlaydilar [2; 5]. J. Tomas pragmatik kompetensiya masalasini o'rganib, til vositalaridan vaziyatga mos foydalanish samarali muloqotning muhim sharti ekanini ko'rsatadi [4]. Mavjud tadqiqotlar komissiv aktlarning asosan va'da, majburiyat va mas'uliyat jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, ularning ishonch yaratish, hamkorlikni shakllantirish va ijobiy kommunikativ munosabatlarni rivojlantirishdagi funksiyalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada konstruktiv komissiv aktlarning aynan funksional-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi konstruktiv komissiv nutqiy aktlarning funksional-pragmatik xususiyatlarini aniqlashda tavsifiy, kontekstual va funksional-pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida *promise, guarantee, offer* kabi komissiv nutqiy aktlarning kommunikativ vazifalari va pragmatik mazmuni o'rganildi. Ingliz tilidagi turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llanadigan konstruktiv komissiv konstruktsiyalar orqali majburiyat bildirish, ishonch yaratish va hamkorlikni rivojlantirish funksiyalari tahlil qilindi.

Natijalar. Ingliz tilida konstruktiv komissiv nutqiy aktlar tizimi asosan va'da, taklif va kafolat kabi shakllarni o'z ichiga oladi. Bu aktlar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida kelgusidagi hamkorlik hamda ishonchni shakllantirishga xizmat qiladigan majburiyat ifodalaridir. Konstruktiv komissivlar muloqot jarayonida ijobiy munosabat va kelishuv asoslarini yaratib, taraflar o'rtasida muayyan kelishuvning kommunikativ bazasini quradi va bir nechta asosiy funksiyalarni bajaradi:

- Majburiyat bildirish funksiyasi. Komissiv aktlarning asosiy vazifasi so'zlovchining kelajakdagi harakatga nisbatan mas'uliyatini ifodalashdan iborat. Misol: *I promise to help you with this project.* Mazkur gapda so'zlovchi oddiy ma'lumot bermaydi, balki kelajakdagi yordam harakatini bajarishga va'da beradi. Shu sababli ushbu birlik komissiv nutqiy akt hisoblanadi.
- Ishonch yaratish funksiyasi. Konstruktiv komissivlar muloqot ishtirokchilari o'rtasida ishonch munosabatlarni shakllantiradi. Misol: *We guarantee high-quality service.* Ushbu misolda *guarantee* fe'li xizmat sifati uchun javobgarlik va kafolat ma'nosini ifodalaydi.

- Hamkorlikni shakllantirish funksiyasi. Konstruktiv komissiv aktlar ijtimoiy va professional munosabatlarda hamkorlik asosini yaratadi. Misol: *I will support your decision*. Mazkur birlik so'zlovchining tinglovchini qo'llab-quvvatlashga tayyorligini bildiradi.

Ingliz tilida konstruktiv komissiv nutqiy aktlarning pragmatik vazifalari quyidagicha ta'riflanadi:

Promise (va'da) – shaxsiy va'da berish, ya'ni so'zlovchining kelajakdagi ma'lum bir harakatni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga olishini bildiradi. Promise nutqiy aktida so'zlovchi o'z xatti-harakatiga javobgarlikni oladi va tinglovchida ma'lum bir kutish hosil qiladi. Misollar: *I promise I will help you with your project*. Bu gapda so'zlovchi kelajakda yordam berish majburiyatini ifodalaydi. *I promise to be on time tomorrow*. Bu gapda esa so'zlovchi o'zining kelajakdagi harakatini kafolatlashga harakat qilmoqda.

Guarantee (kafolat) – ma'lum bir natija yoki holatning ishonchli bo'lishini ta'minlash, tinglovchiga ishonch bildirish vazifasini bajaradi. Guarantee komissiv aktida so'zlovchi biror narsaning bajarilishi yoki sifatiga nisbatan qat'iy ishonch bildiradi. Misollar: *I guarantee that you will be satisfied with our service*. Bu yerda so'zlovchi xizmat sifati bo'yicha ishonch bildirmoqda. *We guarantee the quality of our products*. Bu gapda tashkilot yoki shaxs ma'lum bir majburiyatni o'z zimmasiga olmoqda.

Offer (taklif) – yordam, xizmat yoki imkoniyat taklif qilishni ifodalaydi. Offer nutqiy aktida so'zlovchi tinglovchiga biror harakatni bajarishga tayyor ekanini bildiradi.

Misollar: *I offer to help you with your homework*. Bu gapda so'zlovchi yordam berishga tayyorligini bildiradi. *We offer you the opportunity to join our team*. Bu esa rasmiy taklif shakli bo'lib, ma'lum bir imkoniyatni taqdim etishni anglatadi.

Umuman olganda, konstruktiv komissiv nutqiy aktlar so'zlovchining kelajakdagi harakatlari, majburiyatlari va niyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz tilida bunday aktlar ko'pincha promise, guarantee, offer kabi fe'llar yordamida amalga oshiriladi. Ularning asosiy pragmatik xususiyati shundaki, so'zlovchi o'zini ma'lum bir harakatni bajarishga yoki bajarmaslikka bog'laydi.

Muhokama. Natijalar shuni ko'rsatadiki, konstruktiv komissiv nutqiy aktlarning mazmuni faqat grammatik shakl asosida belgilanmaydi. Ularning pragmatik mohiyati kommunikativ vaziyat, so'zlovchining maqsadi va tinglovchining kutishlari bilan bog'liq. Masalan: *I will help you with your research*. Ushbu gap grammatik jihatdan kelasi zamon shaklida bo'lsa-da, pragmatik jihatdan yordam berish majburiyatini bildiradi. Demak, *will* vositasi faqat vaqt ma'nosini emas, balki niyat va mas'uliyatni ham ifodalaydi.

J.L.Ostinning nazariyasiga ko'ra, nutqiy akt lokutsion, illokutsion va perlokutsion bosqichlardan tashkil topadi [1]. Konstruktiv komissivlarda ayniqsa illokutsion maqsad muhim hisoblanadi, chunki so'zlovchi o'z nutqi orqali muayyan majburiyatni amalga oshiradi.

J.R.Syorl fikricha, nutqiy aktning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun so'zlovchi tegishli imkoniyatga ega bo'lishi va tinglovchi ushbu majburiyatni anglay olishi zarur [3]. Shuningdek, konstruktiv komissiv aktlarning qo'llanishi madaniy xususiyatlar bilan ham bog'liq. Turli madaniyatlarda va'da berish, kafolatlash yoki majburiyat bildirish shakllari farqlanishi mumkin. Shu sababli xorijiy tilni o'rganishda grammatik bilimlar bilan bir qatorda pragmatik kompetensiyani shakllantirish ham muhimdir.

Xulosa. Ingliz tilidagi konstruktiv komissiv nutqiy aktlarning funksional-pragmatik tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur birliklar kommunikativ jarayonda muhim ijtimoiy va

pragmatik vazifalarni bajaradi. Konstruktiv komissiv aktlar nutqiy aktlar tizimida alohida o'rin egallaydi va so'zlovchining kelajakdagi faoliyatiga nisbatan majburiyatini ifodalaydi. Ingliz tilida komissiv ma'no asosan *promise, guarantee, offer* kabi birliklar va modal konstruktsiyalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu aktlarning asosiy funksiyalari majburiyat bildirish, ishonch yaratish, hamkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Konstruktiv komissivlarning pragmatik mazmuni til shakli bilan birga kommunikativ vaziyat va madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. Shunday qilib, ingliz tilidagi konstruktiv komissiv nutqiy aktlarni o'rganish pragmatik nazariyani rivojlantirish, xorijiy til o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Austin, J. L. *How to Do Things with Words*. Oxford: Oxford University Press, 1962.
2. Levinson, S. C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
3. Searle, J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
4. Thomas, J. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London: Longman, 1995.
5. Yule, G. *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press, 1996.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil). – 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.